

“Suyultirilgan gaz inshootlarini ishlatish boshqarmasi”

Boshqarma vazifa va funksiyalari

Respublika bo‘yicha aholi va ijtimoiy soxa obyektlariga ajratilgan imtiyozli suyultirilgan gaz miqdorlarini gaz to‘ldirish inshootlari orqali maishiy gaz ballonlariga to‘liq va xavfsiz to‘ldirilishini doimiy nazorat qilish.

Jumladan;

- ishlab chiqaruvchi korxonalaridan kelgan suyultirilgan gazni inshootlarda qabul qilish, saqlash va tarqatish ishlarini tashkil etish;

- ishlab chiqaruvchi korxonalardan kelgan suyultirilgan gazni o‘z vaqtida tushirib olish, tarqatish va ortiqcha sarf harajatlarga yo‘l qo‘ymaslik ishlarini tashkillashtirish;

- qabul qilingan suyultirilgan gazni saqlash va Jamiyat tizimidagi korxonalariga yetkazib berishni tashkil etish;

- suyultirilgan gazga bo‘lgan yillik ehtiyojdan kelib chiqqan holda inshootlar quvvatlarini oshirishni rejalashtirish;

- Jamiyat tizimidagi korxonalariga yetkazib berilgan suyultirilgan gaz xajmi va maishiy gaz ballonlarini ta‘mirlash va sinovdan o‘tkazish sexlarida amalga oshirilayotgan ishlarda hisobni yuritilishini muvofiqlashtirish.

- Jamiyat tizimidagi korxonalar tomonidan inshootlar bo‘yicha taqsimlangan jadval asosida suyultirilgan gazni tarqatilishini monitoring qilish;

- inshootlardagi mavjud o‘lchov vositalari va jihozlarni belgilangan muddatlarda davlat ko‘rigi va sinovdan o‘tkazishni nazorat qilish;

- Jamiyat tizimidagi maishiy gaz ballonlarini ta‘mirlash va sinovdan o‘tkazish sexlarida gaz ballonlarni ta‘mirlash va sinovdan o‘tkazish ishlarini tashkil etish.

- tasdiqlangan suyultirilgan gaz hajmi va resurslardan kelib chiqib, Jamiyat tizimidagi korxonalariga suyultirilgan gaz yetkazib berilishini nazoratga olish;

- O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tomonidan kelgusi yil uchun ajratilgan suyultirilgan gaz miqdorlaridan kelib chiqib, inshootlar quvvatlarini o‘rganib chiqish va ularni modernizatsiya qilish yuzasidan takliflar tayyorlash;

- inshootlar quvvatlarini oshirish uchun zarur bo‘ladigan zamonaviy asbob - uskuna va jihozlarga buyurtma tayyorlash;

- inshootlarda asbob - uskuna va jihozlarni o‘rnatish ishlarini tashkillashtirish.

- suyultirilgan gazni yetkazib berish jarayoni bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribalarini o‘rganish;

- inshootlardagi hamda maishiy gaz ballonlarini ta‘mirlash va sinovdan o‘tkazish bo‘yicha innovatsion texnologiyalarni joriy etish va tezkor hisob - kitob bazasini avtomatlashtirilgan tizim orqali yuritilishini tashkillashtirish;

- inshootlarda suyultirilgan gazni qabul qilish, saqlash va tarqatish, zamonaviy texnologiya hamda uskunalardan foydalangan holda texnologik yo‘qotishlar bo‘yicha normativ - texnik hujjatlar ishlab chiqishda qatnashish;

- maishiy gaz ballonlarini ta‘mirlash va sinovdan o‘tkazish sexlarida gaz ballonlarini ta‘mirlash va sinovdan o‘tkazish bo‘yicha ma‘lumotlarni tahlil qilish;

- inshootlarda o‘tkazilgan xatlov natijalari bo‘yicha texnologik yo‘qotishlarni tahlil qilish.

- Yo‘nalish bo‘yicha mavjud muammolarni o‘rganish va ularni bartaraf etish yechimi bo‘yicha rahbariyatga takliflar kiritish.

Xorijiy davlatlar tajribalarini o‘rganish hamda GTF tizimidagi tuman/shahargaz gaz ta‘minoti bo‘linmalari ish faoliyatini yaxshilash samaradorligini oshirish bo‘yicha Jamiyat rahbariyatiga takliflar kiritish.